№6/2026



ADPI
Ilmiy xabarnomasi

“NURLI MASKAN” MAKTAB-INTERNATLARIDA KO‘ZI OJIZ BOLALARNING MUSIQIY SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Astanova Zumradxon Toxirovna
Andijon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya.
Maqolada “Nurli maskan” maktab-internatlarida ko‘zi ojiz bolalarning musiqiy savodxonligini rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi. Xorijiy va mahalliy tadqiqotlar ko‘rib chiqilib, musiqa savodini o‘rgatishda uchraydigan pedagogik muammolar yoritiladi. Brayl nota yozuvi, tiflopedagogik metodlar, maxsus o‘quv adabiyotlari va pedagoglar malakasini oshirishga doir takliflar beriladi.

Kalit so‘zlar:
“Nurli maskan”, ko‘zi ojiz bolalar, musiqiy savodxonlik, Brayl nota yozuvi, tiflopedagogik metodlar, musiqa ta’limi.

Аннотация.
В статье анализируются вопросы развития музыкальной грамотности слепых детей в школах-интернатах «Нурли маскан». Рассматриваются зарубежные и отечественные исследования, освещаются педагогические проблемы обучения музыкальной грамоте. Предлагаются меры по внедрению нотной записи Брайля, тифлопедагогических методов, специальных учебных материалов и повышению квалификации педагогов.

Ключевые слова:
«Нурли маскан», слепые дети, музыкальная грамотность, нотная запись Брайля, тифлопедагогические методы, музыкальное образование.

Abstract.
This article examines ways to develop the musical literacy of blind children in “Nurli Maskan” boarding schools. It reviews relevant international and Uzbek research and identifies pedagogical challenges in teaching music literacy. Recommendations address Braille music notation, typhlopedagogical methods, accessible learning materials, and teacher training.

Keywords:
“Nurli Maskan”, blind children, musical literacy, Braille music notation, typhlopedagogical methods, music education.

Kirish. Ko‘zi ojiz bolalarning musiqiy savodxonligini rivojlantirish inklyuziv va maxsus ta’limning muhim vazifalaridan biridir. Musiqa ta’limi faqat qo‘shiq kuylash yoki cholg‘u ijro etish ko‘nikmalarini shakllantirish bilan cheklanmaydi; u nota savodi, ritm, o‘lchov, temp, dinamika va musiqiy shaklni anglashni ham qamrab oladi. Shu bilimlar o‘quvchiga asarni ongli ijro etish, musiqiy ifoda vositalarini tushunish va mustaqil shug‘ullanish imkonini beradi. Ko‘rish imkoniyati cheklangan bolalar uchun bu bilimlarni egallashda moslashtirilgan materiallar va maxsus pedagogik yondashuvlar zarur.

O‘zbekistonda ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi bolalar uchun “Nurli maskan” maktab-internatlari faoliyat yuritadi. 2022-yil 18-apreldagi PQ-209-son qarorda ushbu maktablarda san’at, jumladan, musiqa yo‘nalishini rivojlantirish va o‘quvchilarning iqtidorini yuzaga chiqarish maqsadida ularni hududlardagi musiqa va san’at maktablariga biriktirish vazifasi belgilangan [1]. Bu vazifa ta’lim muassasalari hamkorligini kuchaytirish bilan birga, ko‘zi ojiz o‘quvchilarga mos o‘quv sharoiti, metodik ta’minot va malakali pedagoglar zarurligini ham ko‘rsatadi. Amaliyotda ushbu ehtiyojlarning barchasi to‘liq qondirilmaganligi musiqiy savodxonlikni rivojlantirish bo‘yicha alohida yondashuvni talab etadi.

Tadqiqot materiallari va metodologiyasi. Maqolada ko‘zi ojiz bolalarning musiqiy savodxonligini rivojlantirishga doir ilmiy-metodik manbalar tahlili, mavjud ta’lim amaliyotini tavsiflash va muammolarni umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Xorijiy tadqiqotlarda ko‘zi

ojiz o‘quvchilarga musiqa o‘rgatish, kompensator imkoniyatlarni rivojlantirish hamda ta’lim jarayonini tashkil etish masalalari yoritilgan. Jumladan, G.V. Nikulina ko‘zi ojiz bolalar ta’limining mazmuni va tashkil etilishini maxsus qo‘llanmada bayon etgan [2], V.N. Kulakov esa ko‘zi ojiz musiqachilarda kompensator omillarning shakllanishini o‘quv jarayonini takomillashtirish bilan bog‘lagan [3]. L.Y. Shkadina ko‘zi ojiz bolalarga musiqa o‘rgatishda uchraydigan muammolarni ko‘rib chiqqan [4]. Shuningdek,

A. Kalinina [5], Yu. Antonova va N. Didenko [6] ishlarida ham ushbu yo‘nalishga oid masalalar yoritilgan.

O‘zbekistonda ko‘zi ojiz bolalarning musiqiy savodxonligini rivojlantirishga oid metodik manbalar hali yetarli emas; mavjud ishlarning muayyan qismi maqola va tezislar shaklida. M. Inatullayev Yevropa tajribasidagi innovatsion usullarni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish masalasini ko‘taradi [7]. D. Namozova va

Z. Astanova ko‘zi ojiz yoshlarning musiqiy bilimlarni egallashi uchun maxsus o‘quv adabiyotlarini yaratish zarurligini ta’kidlaydi [8]. S. Erqo‘ziyev esa inklyuziv ta’lim sharoitida ko‘zi ojiz talabalarning musiqiy idrokini rivojlantirishda “gamefikatsiya” metodlaridan foydalanishni tavsiya etadi [9]. Mazkur manbalar muammoning dolzarbligini ko‘rsatadi, biroq “Nurli maskan” maktab-internatlarida musiqiy savodxonlikni o‘qitish uchun amaliy-metodik ta’minotni yanada rivojlantirish zarur.

Muhokama va natijalar. Musiqa savodi o‘quvchilarga musiqiy-nazariy bilimlarni egallash, nota yozuvini tushunish va musiqani ongli idrok etish imkonini beradi. U ijrochilik ko‘nikmalari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, xalq va bastakorlik musiqasi, milliy musiqaning mahalliy uslublari hamda mumtoz musiqa haqidagi tasavvurlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Musiqa savodi orqali o‘quvchilar asarning ritmi, o‘lchovi, tempi, dinamik belgilari, tonalligi va shaklini anglashni o‘rganadilar. Olingan bilimlar qo‘shiq kuylash, musiqa tinglash va cholg‘u ijrosida qo‘llanilgandagina amaliy ahamiyat kasb etadi. Ko‘zi ojiz bolalarni o‘qitishda esa mazkur tushunchalarni faqat og‘zaki izohlash bilan cheklanmay, ularni sezgi orqali idrok etishga mos vositalar va Brayl nota yozuvi yordamida mustahkamlash muhimdir.

Ko‘zi ojiz bolalar bilan yakka tartibda va guruhda ishlaydigan musiqa o‘qituvchilari tiflopedagogik yondashuvlardan xabardor bo‘lishlari kerak. Biroq maxsus metodik qo‘llanmalar, Brayl nota yozuvidagi darsliklar va pedagoglar uchun tizimli malaka oshirish imkoniyatlari yetarli emasligi ta’lim sifatiga ta’sir qilishi mumkin. O‘qitishda faqat og‘zaki tushuntirishga tayanish o‘quvchining nota belgilarini mustaqil o‘rganishi va musiqiy bilimlarini qayd etishi uchun yetarli bo‘lmaydi [5,158]. Ko‘zi ojiz bolalarning xotirasi doimo kuchli bo‘ladi, degan qarash ham to‘g‘ri emas: har bir bolaning individual xususiyatlari, salomatligi va ruhiy holati o‘ziga xos. Shuning uchun ta’lim jarayonida o‘quvchining ehtiyojini hisobga olish, tushunchalarni bosqichma-bosqich takrorlash va ijobiy rag‘batlantirish muhimdir. Ta’limda bunday bolalarga befarq bo‘lmaslik, ularga mehr va motivatsiya berish lozim [10]. “Nurli maskan” maktab-internatlarida tahsil olayotgan, musiqa yo‘nalishiga qiziqish bildirgan bolalarning musiqiy salohiyatini rivojlantirish uchun nazariy bilim va ijro amaliyoti birgalikda olib borilishi zarur. Nota yozuvini bilmaslik sababli o‘quvchilar ko‘plab belgilar va

ma’lumotlarni yodda saqlashga majbur bo‘lishi mumkin. Bilimlar hajmi ortgani sari bu holat o‘rganishni qiyinlashtiradi. Natijada o‘quvchi asarni ijro eta olsa ham, tovush cho‘zimlari, takt o‘lchovi, dinamika va kayfiyat kabi jihatlarni yetarli darajada anglamasligi mumkin**.**

Musiqiy savodxonlikning yetarli shakllanmasligi ijro mahoratining keyingi rivojiga ham to‘sqinlik qilishi mumkin. Nota savodi musiqachiga asarni yoddan takrorlashdan tashqari, uning tuzilishi va ifoda vositalarini ongli anglashga yordam beradi. Shu sababli ko‘zi ojiz o‘quvchilar uchun musiqa savodini o‘rgatish umumiy ta’lim dasturining chekka qismi emas, balki ijrochilikni qo‘llab-quvvatlovchi muhim tarkibiy qism sifatida qaralishi lozim.

“Nurli maskan” maktab-internatlarida ko‘zi ojiz bolalarning musiqiy savodxonligini rivojlantirish va musiqa ta’limidan teng foydalanish imkoniyatini kengaytirish uchun quyidagi tashkiliy-metodik choralar maqsadga muvofiq:

1) Ko‘zi ojiz bolalar uchun maxsus sinflar yoki filiallar tashkil etish, “Nurli maskan” maktab-internatlari va ular bilan hamkorlik qiluvchi Bolalar musiqa va san’at maktablari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish hamda o‘quv xonalarini zarur jihozlar bilan ta’minlash.

2) O‘quvchilar tanlagan musiqa yo‘nalishi bo‘yicha malakali mutaxassis o‘qituvchilar bilan ta’minlanishini yo‘lga qo‘yish.

3) Ko‘zi ojiz o‘quvchilarga musiqa o‘rgatuvchi pedagoglar uchun Brayl nota yozuvi va musiqiy tiflopedagogik metodlar bo‘yicha qayta tayyorlash hamda malaka oshirish kurslarini tashkil etish.

4) Tegishli musiqa yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv qo‘llanmalari va darsliklarni Brayl yozuvida tayyorlash va nashr etish.

5) Brayl nota yozuvini biladigan ko‘zi ojiz mutaxassis o‘qituvchilarni musiqa ta’limi muassasalariga jalb etish, ularning tajribasi va amaliy bilimlaridan foydalanish.

6) Ko‘zi ojiz musiqa o‘qituvchilariga darsga tayyorgarlik ko‘rish, o‘quvchilar bilan ishlash va ish hujjatlarini yuritishda zarur yordamchi xizmatlarni tashkil etish.

7) Dars samaradorligini oshirish uchun maxsus doska, taktil ko‘rgazmalar, moslashtirilgan o‘quv vositalari va musiqa asboblari bilan ta’minlash.

Xulosa. “Nurli maskan” maktab-internatlarida ko‘zi ojiz bolalarning musiqiy savodxonligini rivojlantirish uchun musiqiy-nazariy bilimlarni ijro amaliyoti bilan uyg‘unlashtirish zarur. “Musiqa madaniyati” fanida musiqa savodi mazmunli va izchil o‘rgatilishi lozim. Maxsus ko‘rgazmali vositalar, Brayl nota yozuvi, zamonaviy texnik imkoniyatlar va tiflopedagogik metodlarning uyg‘un qo‘llanishi mavzularni o‘zlashtirishni yengillashtiradi. Shuningdek, pedagogning o‘quvchi yutuqlarini e’tirof etishi va uni muntazam rag‘batlantirishi o‘ziga ishonch hamda mustaqil shug‘ullanish istagini kuchaytiradi. Tashkiliy sharoitlarni yaxshilash, maxsus o‘quv adabiyotlarini yaratish va o‘qituvchilar malakasini oshirish orqali ko‘zi ojiz bolalarning musiqiy qobiliyatlarini to‘liqroq namoyon etishlariga ko‘maklashish mumkin.

ISSN 2181-4309

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyaev Sh..M. Ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda ta’lim berish sifatini oshirish hamda ular faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-209-sonli qarori https://lex.uz/docs/-5966089

2. Никулина Г. В. Содержание и организация образования слепых в свете ФГОС началъного обшего образования для обучаюшчиҳся с ОВЗ: учебно-методическое пособие / Г. В. Никулина, Е. В. Замашнюк, А. В. Потемкина, Л. В. Фомичева. СПб.: Изд-во РГПУ им. А. И. Герцена, 2015. (204 с.)

3. Кулаков В.Н. Формирование компенсаторных факторов у незрячих музыкантов как условие оптимизации учебного процесса: На материале работы с незрячими баянистами-аккордеонистами. Диссертация на соиск. кандидат пед. наук. Москва: 2000 (151)

4. Шкадина Л.Ю. О некоторых проблемах в обучении незрячих детей музыке. Методическая рекомендация. Чернь: 2020.

5. Калина А.Э. Музыкальное образование незрячих людей: проблемы, которые ждут своего решения. Музыкальное искусство и образование, 2014, № 4. 157-161-бетлар.

6. Антонова Ю. П., Диденко Н. С. Хрестоматия для обучения игре на фортепиано слепых и слабовидящих учащихся «Шаг за шагом» (учебно методическое пособие) – М.: Экон-Информ, 2007, – 117 с.

7. Inatullayev M.N. Yevropada ko‘zi ojiz bolalarga musiqiy ta’lim berishni innovatsion metodlarini O‘zbekistonga moslashtirib, amalda tatbiq etish. Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi. 5-to’plam 1-son mart, 2024. 58-62-b.

8. Namozova D. Astanova Z. Ko‘zi ojiz yoshlarning musiqiy savodxonligini takomillashtirish yo‘llari. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2022,VOLUME 2 | ISSUE 10/2. 436-441-b.

9. Erqo‘ziyev S.I. nklyuziv ta’lim sharoitida imkoniyati cheklangan ko‘zi ojiz talabalar musiqiy idrokini shakllantirishda “gamefikatsiya” metodlaridan foydalanish samaradorligi. Journal of arts and humanities, 2024, Volume-7, Issue-5. 15-18-b.

10. Baratov M.A. Defektologiya fani va uning shakli dolzarb masalalari. 18.10.2022. 2-bet. https://zenodo.org/records/7221621

MUNDARIJA

Sobirova Jumagul Erkinjon qizi
MAKTABGACHA TA`LIM YO`NALISHI TALABALARIDA SHAKLLANTIRILGAN FASILITATORLIK QOBILIYATINI AMALIYOTGA TADBIQ ETISH BOSQICHLARI 258 264

Kosimova Gullola Mullajonovna
BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHISINING KASBIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHDA DARSLIK BILAN ISHLASH KO‘NIKMASINING ROLI 265 267

Qurbonaliyeva Maftunabonu Murodjon qizi
MUSIQA TA’LIMI TIZIMIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI TAYYORLASHNING BUGUNGI HOLATI VA MUAMMOLARI 268 272

Ibodova Nasiba Komilovna
IBROHIM MO‘MINOV FAOLIYATIDA MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASH VA OLIM SHAXSIDA MA’NAVIY JASORAT MASALASI 273 276

Nishonov Nodir Alimjanovich
FUTUROLOGIK KO’NIKMALARNING PSIXOLOGIK ASOSLARI 277 282

Дўмонов Б.М., Ашурова К.А.
КИМЁ ФАНИНИ ЛОЙИҲАЛАШТИРИШ ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ АСОСИДА ЎҚИТИШ МЕТОДИКАСИ 283 287

Хужанов Э.Б, Мухтарова Х.Х.
ИЗ ОПЫТА РАЗРАБОТКИ ВЕБ-ОРИЕНТИРОВАННОЙ ИНТЕРАКТИВНОЙ ПЛАТФОРМЫ ДЛЯ ПРЕПОДАВАНИЯ РАЗДЕЛА «ЭЛЕКТРИЧЕСТВО И МАГНЕТИЗМ» В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ 288 295

Astanova Zumradxon Toxirovna
“NURLI MASKAN” MAKTAB-INTERNATLARIDA KO‘ZI OJIZ BOLALARNING MUSIQIY SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI 296 299

Axunov U.R.
BO‘LAJAK MUTAXASSISLARNING KASBIY HARAKAT ANIQLIGINI SHAKLLANTIRISHDA KINESTETIK YONDASHUVNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI 300 302

Yusupov To‘lanboy Ibroximovich
GLOBALLASHUV SHAROITIDA YUQORI MALAKALI SPORTCHILARDA PSIXIK SALOMATLIKNI TA’MINLASHNING INNOVATSION MEXANIZMLARI 303 306

Аблазов Элёрбек Эркинжонович
АХБОРОТ ЖАМИЯТИДА МЕДИАМАДАНИЯТ ФЕНОМЕНИ ВА УНИНГ ЁШЛАР ДУНЁҚАРАШИ ТРАНСФОРМАЦИЯСИДАГИ ИЖТИМОИЙ-ФАЛСАФИЙ РОЛИ 307 313

